



UDK: 891.709

### ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA AYOL OBRAZLARINING BADIY TALQINI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Feruz Burxanova,**

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, PhD.*

**Mohichehra Xamraqulova,**

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti bitiruvchisi*

ORCID: 0009-0008-8415-7836

E-mail: [xamraqulovamahichehra1@gmail.com](mailto:xamraqulovamahichehra1@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20603987>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining iste'dodli vakillaridan biri Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayol obrazlarining badiiy talqini, ruhiy olami va uslubiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida adibaning "Yozsiz yil", "Ayol", "Ikki manzil", "Rashk", "Ko'lanka" kabi asarlaridagi ayol qahramonlar tahlil qilinib, realizm va psixologizm uyg'unligi, badiiy tasvir vositalari hamda til mahorati yoritildi.

**Kalit so'zlar:** Zulfiya Qurolboy qizi, ayol obrazi, realizm, psixologizm, badiiy mahorat, uslub, zamonaviy o'zbek nasri.

**Аннотация.** В данной статье исследуются художественная интерпретация женских образов, их внутренний мир и стилевые особенности в произведениях одной из талантливых представительниц современной узбекской литературы — Зульфийи Куролбой кизи. В ходе исследования проанализированы женские персонажи в произведениях «Год без лета» («Yozsiz yil»), «Женщина» («Ayol»), «Два адреса» («Ikki manzil»), «Ревность» («Rashk»), «Тень» («Ko'lanka»). Освещены вопросы гармоничного сочетания реализма и психологизма, художественных средств изображения, а также языкового мастерства писательницы.

**Ключевые слова:** Зульфийа Куролбой кизи, женский образ, реализм, психологизм, художественное мастерство, стиль, современная узбекская проза.

**Abstract.** This article examines the artistic interpretation, psychological world, and stylistic features of female characters in the works of Zulfiya Qurolboy qizi, one of the talented representatives of contemporary Uzbek literature. The study analyzes female protagonists in the writer's works *Yozsiz yil* (A Year Without Summer), *Ayol* (Woman), *Ikki manzil* (Two Destinations), *Rashk* (Jealousy), and *Ko'lanka* (Shadow). Particular attention is paid to the harmony of realism and psychologism, the use of artistic expressive means, and the author's linguistic mastery.

**Keywords:** Zulfiya Qurolboy qizi, female character, realism, psychologism, artistic mastery, style, contemporary Uzbek prose.

**Kirish.** Badiiy adabiyotda ayol obrazi eng qadimiy va serqirra mavzulardan biri hisoblanadi. Turli davrlarda yaratilgan adabiy asarlarda ayol timsoli nafaqat oila va jamiyatning muhim a'zosi, balki insoniy fazilatlar, ma'naviy qadriyatlar hamda ijtimoiy munosabatlarning badiiy ifodachisi sifatida tasvirlangan. Ayol obrazlari orqali yozuvchilar muayyan davrning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy muammolari va inson ruhiyatining murakkab jihatlarini ochib berishga intilganlar.



Jahon adabiyotida ayol obrazlari ko‘p asrlik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Xususan, Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” romanidagi Elizabet Bennet, Lev Tolstoyning “Anna Karenina” asaridagi Anna Karenina, Virjiniya Vulfning “Missis Dellouey” romanidagi Klarissa Dellouey kabi qahramonlar ayollarning ichki dunyosi, shaxsiy erkinligi va jamiyat bilan munosabatlarini yoritishda muhim badiiy timsollarga aylangan. Mazkur asarlarda ayol obrazlari orqali insonning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy bosim va shaxsiy tanlovlar o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlar aks ettirilgan.

O‘zbek adabiyotida ham ayol mavzusi muhim o‘rin tutadi. XX asr boshlaridan boshlab ayollar taqdiri, ularning jamiyatdagi mavqei va ma’naviy olami badiiy asarlarda keng yoritila boshladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumush, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi Zebiniso kabi obrazlar o‘zbek ayolining murakkab taqdirini, davr ziddiyatlari va ijtimoiy muammolarini aks ettiruvchi yorqin timsollar sifatida adabiyot tarixidan o‘rin oldi. Biroq ushbu davr asarlarida ayol obrazlari ko‘proq ijtimoiy voqealar markazida tasvirlangan bo‘lsa, mustaqillik davri adabiyotida ayolning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va individual shaxs sifatidagi qiyofasini ochishga alohida e’tibor qaratildi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek nasrida inson ruhiyatini chuqur tadqiq etishga intilish kuchaydi. Natijada ayol obrazlarini yaratishda psixologik tahlil, ichki monolog, ramziy va metaforik tasvirlardan keng foydalanish kuzatildi. Bu jarayonda Zulfiya Qurolboy qizi zamonaviy o‘zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Adiba o‘z asarlarida ayol obrazlarini hayotiy voqelik asosida tasvirlash bilan birga, ularning ichki dunyosini, ruhiy iztiroblarini va ma’naviy kechinmalarini chuqur ochib bera oldi.

Zulfiya Qurolboy qizining “Yozsiz yil”, “Ayol”, “Ikki manzil”, “Rashk”, “Ko‘lanka”, “Hilola”, “Kasal qush” kabi hikoya va qissalarida ayol qahramonlar markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu asarlarda ayollar nafaqat oilaviy munosabatlar doirasida, balki murakkab ruhiy olamga ega shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Adiba ayolning dard-u armonlari, orzu-intilishlari, muhabbat va fidoyilik kabi tuyg‘ularini nozik psixologik tahlil vositasida yoritadi. Shu bilan birga, yozuvchi ayol qismati orqali jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolarni ham badiiy talqin etadi.

Adabiyotshunoslar tomonidan Zulfiya Qurolboy qizi ijodiga yuqori baho berilgan. Xususan, Umarali Normatov adibani milliy nasr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ijodkor sifatida e’tirof etsa, Kamola Egamberdiyeva uning asarlarida realizm tamoyillari, hayot haqiqati va inson xarakterlarining ishonarli tasvirlanganligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchilar adiba ijodining asosiy xususiyati sifatida realizm va psixologizmning uyg‘unlashuvini alohida qayd etadilar.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayol obrazlarining badiiy talqini, ularning ruhiy olami va yozuvchining uslubiy mahoratini zamonaviy



adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi adiba asarlaridagi ayol obrazlarining badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash, ularni yaratishda qo'llanilgan tasvir vositalari hamda realizm va psixologizmning o'zaro uyg'unligini tahlil qilishdan iborat.

**Metodlar.** Mazkur tadqiqotda Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol obrazlarining badiiy talqini hamda adibaning uslubiy mahoratini o'rganishga qaratilgan adabiy-tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida yozuvchining "Ayol", "Yozsiz yil", "Ikki manzil", "Rashk", "Ko'lanka", "Hilola", "Kasal qush", "Tafakkur" kabi hikoyalari tanlandi. Ushbu asarlar ayol ruhiyati, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muammolar va insonning ichki kechinmalarini yoritishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, mavzu bo'yicha mavjud ilmiy manbalar o'rganildi. Xususan, Umarali Normatov, Kamola Egamberdiyeva, Xurshid Do'stmuhammad, Xurshidbek Odilov, Umida Xushvaqtova, Diyora Mamatqobulova va boshqa olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Ushbu manbalar orqali Zulfiya Qurolboy qizi ijodining o'ziga xos jihatlari, realizm va psixologizm masalalari hamda ayol obrazlarining badiiy talqini yuzasidan nazariy qarashlar umumlashtirildi.

Tadqiqotda tavsifiy (deskriptiv) metoddan foydalanilib, adiba asarlaridagi ayol qahramonlarning xarakter xususiyatlari, ruhiy holati va ijtimoiy mavqei izchil tavsiflandi. Mazkur metod yordamida ayol obrazlarining individual va tipik jihatlari aniqlanib, ularning badiiy asar kompozitsiyasidagi o'rni belgilandi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod asosida Zulfiya Qurolboy qizi yaratgan ayol obrazlari jahon va o'zbek adabiyotidagi ayrim ayol qahramonlar bilan solishtirildi. Jumladan, o'zbek adabiyotidagi Kumush, Zebiniso kabi obrazlar hamda jahon adabiyotidagi Elizabet Bennet, Anna Karenina va Klarissa Dellouey kabi qahramonlar bilan umumiy va farqli jihatlari qiyoslandi. Bu esa adiba yaratgan ayol timsollarining zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Badiiy matn tahlili metodi tadqiqotning asosiy usullaridan biri sifatida qo'llanildi. Asarlardagi syujet va kompozitsiya, dialog va monologlar, ichki nutq, ramz, metafora, epitet hamda tabiat tasvirlarining ayol obrazlarini yaratishdagi funksiyasi o'rganildi. Ayniqsa, "Ayol" hikoyasidagi Nazokat, "Yozsiz yil"dagi Buvgul ena, "Rashk" hikoyasidagi Xosiyat obrazlari misolida psixologik tasvir vositalarining badiiy vazifasi tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida psixologik tahlil metodidan ham foydalanildi. Ushbu metod orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari, hissiy holatlari va qaror qabul qilish jarayonlari o'rganildi. Adibaning ayol ruhiyatini tasvirlashdagi mahorati ichki monologlar, ruhiy portretlar va badiiy detallar asosida tahlil qilindi.



Bundan tashqari, sistemali yondashuv metodi asosida ayol obrazlari, badiiy tasvir vositalari va asar g'oyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiq etildi. Natijada Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol obrazlarining nafaqat individual xarakter sifatida, balki muayyan ijtimoiy va ma'naviy g'oyalarni ifodalovchi badiiy timsol sifatida yaratilgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida birlamchi badiiy manbalar hamda adabiyotshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar o'zaro solishtirildi va umumlashtirildi. Bu esa Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayol obrazlarining badiiy talqini va uslubiy xususiyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ldi.

**Natjalar.** Tadqiqot davomida Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol obrazlarini yaratishning o'ziga xos badiiy va uslubiy xususiyatlari aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, adiba asarlarida ayol obrazlari voqealar rivojini ta'minlovchi ikkinchi darajali personaj sifatida emas, balki asarning g'oyaviy-badiiy markazini tashkil etuvchi yetakchi obrazlar sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi natija sifatida adiba asarlarida ayol ruhiyatining chuqur psixologik tasviriga alohida e'tibor qaratilgani aniqlandi. "Ayol" hikoyasidagi Nazokat obrazi bunga yorqin misol bo'la oladi. Qahramonning og'ir xastalik bilan kurashi, oila a'zolariga bo'lgan mehri, hayotdan umid uzmaslikka bo'lgan intilishi ruhiy tahlillar orqali ochib berilgan. Muallif qahramonning ichki kechinmalarini dialog va ichki monologlar vositasida tasvirlash orqali uning murakkab ruhiy olamini ochishga muvaffaq bo'lgan.

Ikkinchi muhim natija sifatida realizm va psixologizmning uyg'unligi kuzatildi. "Yoqsiz yil" hikoyasidagi Buvgul ena va Sobir obrazlari real hayotda uchrashi mumkin bo'lgan insonlar sifatida tasvirlangan. Voqealar rivojida ortiqcha romantizatsiya yoki sun'iy drammatizmga yo'l qo'yilmagan. Shu bilan birga, qahramonlarning ruhiy holati, umid va iztiroblari psixologik jihatdan asoslangan holda yoritilgan. Natijada asarda hayot haqiqati va inson qalbi tasviri o'zaro uyg'unlashgan.

Tadqiqot natijalari ayol obrazlarining ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim vosita sifatida xizmat qilishini ham ko'rsatdi. "Rashk" hikoyasidagi Xosiyat, "Ikki manzil" hikoyasidagi ayol qahramonlar taqdiri orqali oilaviy munosabatlar, insoniy qadriyatlar, ruhiy yolg'izlik va jamiyatdagi ayrim muammolar badiiy talqin etilgan. Ayol qahramonlarning hayot yo'li orqali muallif o'quvchini muayyan ijtimoiy va axloqiy masalalar haqida mushohada yuritishga undaydi.

Tahlillar natijasida Zulfiya Qurolboy qizi qahramonlar xarakterini yaratishda psixologik detal va badiiy detallardan unumli foydalangani aniqlandi. Ayniqsa, qahramonlarning yuz ifodasi, harakati, sukuti yoki qisqa dialoglari orqali ularning ichki dunyosi ochib beriladi. Bu usul qahramonlarning ruhiy holatini bevosita tasvirlashdan ko'ra ta'sirchanroq badiiy natija beradi.



Tadqiqot davomida adibaning til va uslubiga xos jihatlar ham belgilandi. Asarlarda xalqona iboralar, shevaga oid birliklar, sinonimik qatlamlar hamda jonli soʻzlashuv unsurlari faol qoʻllanilgan. Bu holat qahramonlar nutqining tabiiyligini taʼminlab, badiiy matnning hayotiylikini kuchaytirgan. Ayniqsa, qishloq hayoti tasvirlangan hikoyalarda mahalliy til birliklarining qoʻllanishi obrazlarning ishonarliligini oshirgan.

Badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish natijasida metafora, epitet, ramz va oʻxshatishlar adiba uslubining muhim tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi. “Hilola” hikoyasidagi oy timsoli, “Yozsiz yil” hikoyasidagi yoz obrazi, “Koʻlanka” hikoyasidagi rang tasvirlari hamda “Ayol” hikoyasidagi quyosh ramzi qahramonlarning ruhiy holatini ochishga xizmat qilgan. Ushbu vositalar orqali matnning poetikligi va emotsional taʼsirchanligi kuchaytirilgan.

Natijalar shuni koʻrsatdiki, tabiat tasvirlari ham adiba nasrida mustaqil badiiy vosita sifatida faol ishtirok etadi. Tabiat manzaralari koʻpincha qahramon ruhiyati bilan parallel holda beriladi. Masalan, “Yozsiz yil” hikoyasida yoz faslining kechikishi Sobirning taqdiri bilan bogʻliq holda tasvirlangan boʻlsa, “Ayol” hikoyasida quyosh obrazi qahramon hayoti va oʻlimining ramziy ifodasiga aylangan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol obrazlari milliy qadriyatlar va umuminsoniy gʻoyalarning uygʻun ifodasi ekanligini koʻrsatdi. Adiba yaratgan qahramonlarda mehr-muhabbat, sabr-toqat, matonat, fidoyilik kabi fazilatlar ustuvor boʻlib, ular zamonaviy oʻzbek ayolining badiiy qiyofasini shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayol obrazlari realizm, psixologizm va milliy ruh uygʻunligida yaratilganligini, adibaning badiiy mahorati esa obrazlar ruhiyatini chuqur va taʼsirchan tasvirlashda namoyon boʻlishini tasdiqladi.

**Muhokama.** Mazkur tadqiqot natijalari Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol obrazlari zamonaviy oʻzbek nasrining muhim estetik hodisalaridan biri ekanligini koʻrsatdi. Tahlillar natijasida aniqlangan realizm va psixologizm uygʻunligi, ayol ruhiyatining chuqur tasviri hamda badiiy tilning oʻziga xosligi adiba ijodining asosiy xususiyatlari sifatida namoyon boʻldi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar adabiyotshunos Umarali Normatovning Zulfiya Qurolboy qizi ijodiga bergan baholari bilan hamohangdir. Olim adibani milliy nasr taraqqiyotiga sezilarli hissa qoʻshgan ijodkor sifatida eʼtirof etadi. Haqiqatan ham, tahlil qilingan asarlar shuni koʻrsatadiki, yozuvchi anʼanaviy ayol obrazlarini takrorlash bilan cheklanmay, ularni yangi badiiy-estetik talqin asosida yaratadi. Natijada ayol obrazi nafaqat voqealar markazida, balki asarning gʻoyaviy-falsafiy mazmunini ifodalovchi yetakchi badiiy timsolga aylanadi.



Kamola Egamberdiyeva Zulfiya Qurolboy qizi nasrining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida realizm tamoyillarining ustuvorligini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Xususan, "Yozsiz yil", "Ayol" va "Rashk" hikoyalarida voqealar hayotiy asosda qurilgan bo'lib, qahramonlarning ruhiy kechinmalari tabiiy va ishonarli tarzda aks ettiriladi. Muallif sun'iy dramatism yoki romantik bo'rttirishlarga murojaat qilmaydi. Aksincha, oddiy insonlar hayotidagi murakkab holatlar orqali o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, adibaning realizmi tashqi voqelik tasviri bilan cheklanmaydi. Asarlarda inson ruhiyatini chuqur tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jihat psixologizmning yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi. Xurshid Do'stmuhammad zamonaviy o'zbek nasrida insonni biryoqlama talqin qilishdan voz kechilib, shaxsning ichki dunyosini tadqiq etishga moyillik kuchayganini qayd etadi. Zulfiya Qurolboy qizi ijodi ushbu tendensiyaning yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Nazokat, Buvgul ena, Xosiyat kabi qahramonlarning ichki kechinmalari orqali inson qalbining murakkab va ziddiyatli jihatlari yoritiladi.

Tadqiqot natijalari Xurshidbek Odilovning obraz haqidagi nazariy qarashlarini ham tasdiqlaydi. Olimning fikricha, har qanday badiiy obraz yozuvchining hayotga bo'lgan munosabatini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Zulfiya Qurolboy qizi yaratgan ayol qahramonlar ham adibaning insonparvarlik, mehr-muruvvat va ma'naviy poklik haqidagi estetik qarashlarini aks ettiradi. Ayniqsa, onalik, fidoyilik va sabr-toqat motivlari aks etgan obrazlar orqali muallifning axloqiy ideallari yaqqol namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat adibaning so'z tanlash mahorati bilan bog'liqdir. Umida Xushvaqtova tadqiqotlarida Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining badiiy qimmatini ko'p jihatdan xalqona til unsurlaridan mahorat bilan foydalanilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalar ushbu fikrni tasdiqladi. Hikoyalarda qo'llangan dialektizmlar, jonli so'zlashuv elementlari, xalqona iboralar va individual muallif metaforalari qahramonlar xarakterini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, Zulfiya Qurolboy qizi nasrida tabiat tasvirlari ham mustaqil badiiy-estetik vazifani bajaradi. Tabiat manzaralari qahramon ruhiyati bilan uyg'un holda tasvirlanib, asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi. Masalan, "Yozsiz yil" hikoyasidagi yoz obrazi umid va hayot ramzi sifatida talqin qilinsa, "Ayol" hikoyasidagi quyosh timsoli inson umrining o'tkinchiligi va hayotning davomiyligini ifodalaydi. Bu holat yozuvchining ramziy tafakkurga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ayol obrazlarining faqat gender masalalarini yoritish vositasi emasligini ham ko'rsatdi. Adiba ayol qahramonlari orqali muhabbat, sadoqat, vijdon, insoniylik, yolg'izlik va hayot ma'nosi kabi umuminsoniy masalalarni ham



ko'taradi. Shu sababli Zulfiya Qurolboy qizi yaratgan obrazlar milliy xarakter bilan bir qatorda universal badiiy mazmun kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari va mavjud ilmiy qarashlarning o'zaro qiyosi Zulfiya Qurolboy qizi ijodining zamonaviy o'zbek nasridagi muhim o'rnini tasdiqlaydi. Adiba realizm va psixologizmni muvaffaqiyatli uyg'unlashtirgan holda ayol obrazlarini yangi badiiy-estetik bosqichga olib chiqqan. Uning asarlarida yaratilgan ayol qahramonlar nafaqat milliy adabiyot, balki inson ruhiyatini badiiy tadqiq etish an'analari rivojiga ham munosib hissa qo'shgan.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijasida Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol obrazlari zamonaviy o'zbek adabiyotining muhim badiiy-estetik hodisalaridan biri ekanligi aniqlandi. Adiba yaratgan ayol qahramonlar nafaqat muayyan ijtimoiy muhit vakillari sifatida, balki murakkab ruhiy olamga ega bo'lgan individual shaxslar sifatida ham tasvirlangan. Bu esa yozuvchi ijodining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan psixologik tasvirning yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida realizm va psixologizmning o'zaro uyg'unlashgani kuzatildi. Muallif voqelikni haqqoniy tasvirlash bilan birga qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va ma'naviy olamini ham chuqur yoritishga erishgan. Ayniqsa, "Ayol", "Yozsiz yil", "Rashk", "Ikki manzil", "Ko'lanka" kabi asarlarda ayol ruhiyatining nozik qatlamlari mahorat bilan ochib berilgan. Natijada ayol obrazlari asarning g'oyaviy markaziga aylangan va muallifning hayot, inson hamda jamiyat haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalovchi vosita vazifasini bajargan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, adiba ayol obrazlarini yaratishda dialog, ichki monolog, psixologik detal, ramz, metafora va tabiat tasvirlaridan samarali foydalanadi. Ushbu badiiy vositalar qahramonlarning ruhiy holatini tabiiy va ta'sirchan ifodalash imkonini bergan. Ayniqsa, tabiat manzaralarining qahramon ruhiyati bilan uyg'un holda tasvirlanishi yozuvchi uslubining muhim belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalari Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol obrazlari orqali insonparvarlik, mehr-muhabbat, sabr-toqat, matonat, vafodorlik va ma'naviy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlar targ'ib etilishini ko'rsatdi. Adiba qahramonlari milliy xarakter xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa-da, ularning ruhiy kechinmalari va hayotiy muammolari umuminsoniy mazmunga ega. Shu jihatdan yozuvchi asarlari nafaqat milliy adabiyot, balki jahon adabiy jarayonlari bilan hamohang rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot davomida Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayol obrazi faqat oilaviy yoki maishiy munosabatlar doirasida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, axloqiy qadriyatlar va inson ruhiyatiga oid masalalarni yoritishda muhim badiiy vosita sifatida qo'llanilishi aniqlandi. Bu esa adiba ijodining ijtimoiy va estetik ahamiyatini yanada oshiradi.



Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizi o‘zbek nasrida ayol obrazlarini yaratishda realizm va psixologizm tamoyillarini muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirgan, milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtira olgan iste’dodli adibalardan biridir. Uning asarlari o‘zbek adabiyotida ayol obrazining yangi badiiy talqinini yaratib, zamonaviy nasr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Tadqiqot natijalari adiba ijodini gender tadqiqotlari, psixologik poetika va zamonaviy o‘zbek nasri rivojlanishi nuqtayi nazaridan yanada chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrar, 2010. – 65 b.
2. Egamberdiyeva K. Zulfiya Qurolboy qizi nasrida realizm tamoyillari // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 9. – B. 776–780.
3. Mamatqobulova D. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida oilaviy munosabatlar // Science Shine International Scientific Journal. – 2025. – Issue 13(48). – B. 41–45.
4. Do‘stmuhammad X. Milliy hikoya. – Toshkent: ADIB, 2013. – 230 b.
5. Karimov Z.A. Zulfiya Qurolboy qizining “Qadimiy qo‘shiq” hikoyasi magik realizm kontekstida // Филологические науки. – 2024. – Tom 17, №10. – B. 3723–3728.
6. Qurolboy qizi Z. Ayol. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.
7. Abdisalomov S. Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol timsoli: Bitiruv malakaviy ishi. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2012. – 52 b.
8. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 115 b.
9. Odilov X. Zulfiya Qurolboy qizi ijodida ayol ruhiyati va ijtimoiy hayot tasviri // Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – B. 1–5.
10. Solijonov Y. Ko‘zgidagi hayot. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – 60 b.
11. Xushvaqtova U. Ijodkorning so‘z tanlash mahorati. – Shahrisabz: Shahrisabz davlat pedagogika instituti, 2023. – 10 b.
12. Sadullayeva D. Zulfiya Qurolboy qizining “Rashk” hikoyasida ayol ruhiyatining badiiy talqini // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – Vol. 1, Issue 3. – B. 109–112.
13. Qurolboy qizi Z. Qadimiy qo‘shiq: hikoyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
14. Vafo S. hamda Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida onalar mas’uliyati talqini // Ilmiy maqola. – 2021. – B. 263–264.
15. Urganch davlat universiteti. Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” hikoyasida ayol obrazi // Ilmiy maqola. – 2022. – B. 616–617.